

## KELAJAK TEXNOLOGIYALARI

### Davranov Ro'zimurod Kuvandik o'g'li

*Toshken Axborot texnologiyalar universiteti Farg'ona filiali 2 kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Tadqiqotlarga ko'ra butun dunyoda ayni damda dunyo bo'yicha texnologiya judayam rivojlanmoqda. Insonlarga foydali taraflari judayam ko'p sunniy intilektlar va IT soxasi jadal rivojlanmoqda bu kasblarni kelajak kasblari desak xam bo'ladi shunga o'hshash kasblar judayam foydali va ularni insonlarga foydali taraflaridan biri onlayn magazinlar va virtual reallik. Ushbu maqolada sunniy intilektlar IT virtual reallik haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *sunnii intilektlar onlayn magazinlar virtual reallik IT.*

#### Kirish

Tadqiqotlarga ko'ra butun dunyoda haqiqatan ham, texnologiyalar dunyo bo'ylab shiddatli bir rivojlanish bosqichida o'tayotgan. Yangi, innovatsion texnologiyalar har bir sohada o'zlarini ko'rsata olmoqda va takomillashtirilgan texnologiyalar ko'proq sohasiga kirib kelmoqda. Virtual reallik, nanotexnologiya, sun'iy intellekt va boshqa yangiliklar, dunyo bo'ylab texnologiya sohasini yanada rivojlantirib kelmoqda. Bu esa innovatsiyalar va yangiliklarning jahon miqyosidagi samaradorligini ko'rsatadi.

Sun'iy intellektning (AI) rivojlanishi so'nggi yillardagi eng tez va eng qiziqarli texnologik yutuqlardan biridir. AI allaqachon tibbiyot, moliya, transport va boshqa ko'plab sohalarda qo'llanilishini topdi.

#### Generativ AI: tasavvur kuchini ochish

Generativ sun'iy intellekt (GAI) - yangi ma'lumotlar, tasvirlar, tovushlar va boshqa materiallarni yaratish, shuningdek, eksperimental ma'lumotlarni asosiy tahlil qilish va o'rganish bilan shug'ullanadigan sun'iy intellektning bir bo'limi.

Generative AI kontentni yaratish va iste'mol qilish usulini inqilob qilishga qaratilgan. Ushbu inqilobiy texnologiya sun'iy intellektning kuchidan san'at, dizayn va musiqaning yangi shakllarini yaratish uchun foydalanadi, inson ijodi va mashina aqli o'rtasidagi chegaralarni yo'q qiladi. 2023 yilni sun'iy intellekt yili deb e'lon qilish noto'g'ri bo'lmaydi va u hatto 2025 yilda ham hukmronlik qilishi kutilmoqda. Bugungi kunda tabiiy filni qayta ishlash chatbotlar va virtual yordamchilar yordamida mashina va odamning uzluksiz o'zaro ta'siriga yo'l ochmoqda. Biroq, foydalanuvchi tajribasi va mijozlarga xizmat ko'rsatish yanada samaraliroq bo'ladi, chunki keyingi yillarda AI

echimlari shunchaki avtomatlashtirishdan ko'proq narsaga aylanadi. Mashinani o'rganish tizimlarga nafaqat o'rganish, balki real vaqtda moslashishga imkon berish uchun juda murakkab bo'ladi. Yaxshilangan ishlov berish imkoniyatlari va boy ma'lumotlar to'plamidan foydalanadigan ilg'or mashinani o'rganish algoritmlari Alga aniqroq ma'lumot berish, misli ko'rilmagan qarorlar qabul qilish va murakkab vazifalarni avtomatlashtirish imkonini beradi.

2025 yilda AI ML bilan hamkorlikda kibernetika xavfsizlikni yaxshilash uchun sog'liqni saqlash diagnostikasida o'z ishtirokini kengaytirishda davom etishi kutilmoqda.

Kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR) jismoniy va raqamli dunyo o'rtasidagi chiziqlarni xiralashtirishga tayyor. Ushbu immersiv texnologiyalar misli ko'rilmagan tajriba va o'zaro ta'sirlarni taklif qilish orqali o'yin-kulgi, ta'lim, o'rganish va hatto sog'liqni saqlash sohasida inqilob qilmoqda.

Narsalar Interneti ma'lumotlarni to'playdigan va almashadigan milliardlab qurilmalarni birlashtirib, eksponent ravishda kengayishda davom etmoqda. Ulangan qurilmalarning bu ulkan tarmog'i sanoatni o'zgartiradi, samaradorlikni oshiradi va innovatsiyalarni rivojlantiradi.

Hozirgi kunda, juda ko'p joylarda «IT» so'zini uchratishimiz mumkin lekin aksariyat yoshi katta insonlar IT soxasi haqida tushunishi qiyin chunki 20x asrda texnologiya rivojlanmagani sababli ularda bu soxa haqida yetarlicha tushunchaga ega emas.

IT — ingliz tilidan olingan «Information Technology» so'zlarining qisqartmasi bo'lib, o'zbek tilida «Axborot texnologiyalari» deb yuritiladi. Shunday bo'lsa ham, biz bu so'zni IT ko'rinishida talaffuz qilamiz va ishlatamiz.

Information Technology bu — axborotni hosil qilish, uni yig'ish, tarqatish, saqlash, qayta ishlash, himoyalash kabi vazifalarni bajaruvchi hisoblash texnikasidir. Hozirgu kunda hisoblash texnikasi vazifasini kompyuter bajarmoqda, shunday ekan IT so'zi ishlatilganda asosan kompyuter texnologiyasi tushuniladi. IT so'zini ishlatganda bir narsaga e'tibor bering, hech qachon «IT texnologiyalari» deb gapirmang, sababi, agar bu gapingizni to'liq to'g'ri yozadigan bo'lsak »Information Technology» texnologiyalari, yoki o'zbekchaga o'g'irsak «Axborot texnologiyalari texnologiyalari» ko'rinishida namoyon bo'ladi, bu sal g'alati bo'lsa kerak. Nazariy ma'lumotlar bilan tanishib oldik, xo'sh xayotda bu so'z bilan nimalarni bog'lashimiz mumkin? Muloqot paytida ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, elektron pochta chat, axborot olish chog'ida xabarlar, ob-

havo ma'lumotlari axborotni qayta ishlashda matematik amallarni bajaruvchi dasturlar, grafiklar, video, yozuv, o'qish jarayonida elektron kitoblar, interaktiv darslar, qo'llanmalar dam olishda kinolar, musiqa, o'yinlar, Demak, hayotimiz shu so'z bilan chambarchas bog'liq ekan. Qanday ish qilishimizdan qat'iy nazar, hattoki dam olayotganimizda ham IT xizmatlaridan foydalanar ekanmiz. Oddiy mobil telefonimiz ham IT qurilma hisoblanadi, chunki biz bu qurilmada qandaydir ma'lumotlar saqlaymiz. Ish jarayonimiz kompyuter texnologiyalari bilan bog'liq bo'lgani sababli, har bir korxonada alohida IT bo'limlar mavjud, hattoki umuman kompyuterga aloqasi bo'lmagan korxonalarda ham. Demak, bu sohaga qiziqish va talab katta. Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi raisi Komil Allamjonov yoshlarni axborot texnologiyalarini yaxshi o'rganib, shaxsiy rivojlanishga va dunyo bozoriga chiqib, erkin va munosib yashashga chorladi.«Dunyoda IT sohasi shu darajada rivojlanib ketyaptiki, endilikda ayrim kompaniyalar ushbu yo'nalishda universitetni bitirganlarni ishga olmayapti. Chunki ular o'qigan o'quv dasturlari ushbu rivojlanish bilan birga yangilanishga ulgurmayapti. Bu sohani yaxshi bilganlar bozorda rosa talash. Narxlar baland. Keyin ham faqat shunaqa bo'ladi. Eng katta pul aynan shu yo'nalishda. Eng asosiysi, aytishnik bo'lish uchun diplom kerak emas. Pul topmoqchimisiz? Yaxshi yashamoqchimisiz? Boy bo'lmoqchimisiz? Maybax yoki X7 da yurmoqchimisiz? Erkin, o'zingizga xon bo'lmoqchimisiz? Faqat IT yo'nalishiga o'zingizni yo'naltiring. Super kontrakt pullarini o'z shaxsiy rivojingiz uchun ishlating. Dunyo bozoriga chiqing. Hammasi oson. Hammasi maqsadga bog'liq», – deya yozdi Allamjonov o'z kanalida.

Hozirgi kunda internet do'konlarning faoliyati insonlarning hayotini bir muncha yegilashtirmoqda hamda onlayn do'konlar insonlarning vaqtini tejaganligi sababli jamiyki barcha internet do'konlardan foydalanmoqda.

Internet-do'kon — elektron savdo-sotiq shakli, tovarlarni Internet orqali sotishga mo'ljallangan veb-sayt. Internet-do'kon xaridorlari onlayn tarzda (kompyuter yoki smartfonda) tovarlarni tanlashlari, xarid uchun buyurtmani rasmiylashtirishlari, to'lov va yetkazib berish usullarini tanlashlari (elektron to'lov tizimi orqali to'lashlari ham) mumkin. Internet-do'konda savdo masofadan amalga oshiriladi. Bu holat ayrim tovarlar sotilishiga cheklovlar kiritilishiga sabab bo'ladi. Masalan, O'zbekistonda ham internet-do'konlarda alkogol mahsulotlar, zargarlik buyumlari va ayrim boshqa tovarlar internet orqali erkin sotilishi qonunchilik bilan taqiqlangan yoki cheklangan. Internet-do'kondagi tovarlar katalog tarzida taqdim etiladi (xuddi oddiy do'kondagi polkalardek), turli kategoriyalarga ajratiladi va tovar fotosurati, narxi, qisqacha ma'lumotlari va boshqa xususiyatlariga ega bo'ladi (xuddi oddiy

do'kondagi bo'limlardek). Saytga tashrif buyurgan shaxs (xaridor) tovar xususiyatlari bilan tanishib chiqib, o'ziga keraklisini "Savatcha"ga solish imkoniyatiga ega (oddiy do'kondagi savatchadek). Keyin "Savatcha"ga o'tib, o'zi tanlagan tovarlarni, ularning summasini ko'rishi mumkin. "Savatcha"da tovarlar miqdorini o'zgartirishi, ortiqchasini chiqarib tashlashi, yetkazish usulini tanlashi mumkin. Shundan keyin "Buyurtmani rasmiylashtirish" sahifasida o'zining shaxsiy ma'lumotlarini qoldiradi va to'lov usulini tanlaydi (buyurtma beradi).

O'zbekistondagi Internet-do'konlarda to'lov turlicha bo'lishi mumkin: plastik kartadan elektron to'lov tizimlari orqali (masalan Click, PayMe kabi), bank to'lov terminali orqali yoki naqd pul ko'rinishida (yetkazilgan joyida).

Buyurtmani yetkazib berish kuryer (Internet-do'kon xodimi yoki boshqa shaxslar) yoki pochta xizmati tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Internet-do'konning oddiy do'konlarga nisbatan eng asosiy afzalliklari quyidagilar: Internet-do'konga kuniga 24 soat va yilning 365 kunida, tushlik payti yoki dam olish, bayram kunlariga qaramasdan, sutkaning xohlagan paytida kirish, tovarlarni tanlash va buyurtma qoldirish mumkin; Internet-do'konga dunyoning xohlagan joyidagi har qanday xaridor uyidan chiqmagan holda kirishi mumkin; Internet-do'konga joylahtiriladigan tovarlar hamda xizmatlar turlari va soni cheklanmagan; Internet-do'kon xaridorlari va sotuvchilari bir-biri bilan oradagi masofadan qat'iy nazar onlayn-chat, elektron pochta orqali va boshqa usullarda xohlagan paytda bog'lanishlari mumkin; mobil qurilmalar va internet rivojlanishi xaridor xohlagan joyida turib (ko'chada, hovlida, uyda, mehmonxonada va hokazo) Internet-do'konga kirish tovar sotib olish imkonini beradi; Internet-do'kon – bu savdo-sotiq sohasining kelajagi.

Shu o'rinda xulosa qilib ta'kidlash joizki texnologiyalarning hayotimizda tutgan o'rnini beqiyosdir ular yordamida hayotimiz osonlashadi vaqtimiz tejashda uzog'imizni yaqin qilishda mushkulimizni osonlashtiradi. Bunga misol qilib Internet do'konlarni internet orqali savdo jarayonini sodda va qulay qilishadi va mijozlar uchun tezlik va qulaylikni ta'minlaydi. Virtual Realitiya texnologiyasi har kuni rivojlanib borayotgan va turli sohalarda keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiya insonlarga eng yaqin va interaktiv tajribani taqdim etishda yordam beradi. Suniy intellekt bugungi kunda turli sohalarda muvaffaqiyatli ishlatilmoqda, masalan, ma'lumotlar analizi, avtomatlashtirish, robototexnika, so'zlar orqali interfeyslar va boshqalar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://pulse/emerging-technologies-glimpse-future-technaura>.
2. <https://kun.uz/news/it-sohasi-bu-bugun-va-kelajak>.
3. <https://sim-sim.uz/uz/internet-dokon-ozini-nima>.